

**O'QUV JARAYONIDA O'QUVCHILARDA MILLIY
TUYG'ULARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-
SHAROITLARI**

Begmatova Nasiba Safarbayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

2-bosqich mustaqil tadqiqotchisi.

Tel: +99897 016 08 18

[*begmatovanasiba72@gmail.com*](mailto:begmatovanasiba72@gmail.com)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quv jarayonida o'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'quvchilarning milliy ongini rivojlantirish, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish hamda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari yoritilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar va madaniy merosdan samarali foydalanish yo'llari ko'rib chiqilgan. Ishda o'qituvchi faoliyatining ahamiyati, ta'lim metodlari va pedagogik muhitning o'quvchilarda milliy tuyg'ularni rivojlantirishdagi o'rni tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari o'quvchilarda milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: o'quv jarayonida milliy tuyg'ularni shakllantirish, o'quvchilarda milliy ongni rivojlantirish, milliy qadriyatlar asosida tarbiya, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish, ta'lim va tarbiya jarayonining uyg'unligi, pedagogik shart-sharoitlar, o'qituvchining pedagogik mahorati, milliy madaniyat va ma'naviy meros, urf-odat va an'analar asosida tarbiyalash, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularini rivojlantirish

Аннотация: В данной работе анализируются педагогические условия формирования национальных чувств у учащихся в процессе обучения. Исследование охватывает вопросы развития национального самосознания

учащихся, формирования чувства уважения к национальным ценностям и воспитания в духе патриотизма. Также рассматриваются способы эффективного использования национальных ценностей, обычаев, традиций и культурного наследия в образовательном процессе. Анализируется значение деятельности учителя, методов обучения и роли педагогической среды в развитии национальных чувств у учащихся. Результаты исследования имеют большое значение для формирования национальной гордости, осознания национальной идентичности и чувства патриотизма у учащихся.

Ключевые слова: Формирование национальных чувств в образовательном процессе, развитие национального самосознания у учащихся, воспитание на основе национальных ценностей, формирование патриотических чувств, развитие осознания национальной идентичности, гармония образовательного и воспитательного процесса, педагогические условия, педагогические навыки учителя, воспитание на основе национальной культуры и духовного наследия, обычаев и традиций, духовно-нравственное воспитание молодого поколения, развитие чувства национальной гордости и национальной чести.

Annotation: This work analyzes the pedagogical conditions for the formation of national feelings in students during the educational process. The study covers the issues of developing students' national consciousness, forming a sense of respect for national values, and educating them in the spirit of patriotism. Also, ways of effectively using national values, customs, traditions, and cultural heritage in the educational process are considered. The work analyzes the importance of teacher activity, educational methods, and the role of the pedagogical environment in the development of national feelings in students. The results of the study are of great importance in the formation of national pride, awareness of national identity, and feelings of patriotism in students.

Keywords: formation of national feelings in the educational process, development of national consciousness in students, education based on national

values, formation of patriotic feelings, development of awareness of national identity, harmony of the educational and upbringing process, pedagogical conditions, pedagogical skills of the teacher, education based on national culture and spiritual heritage, customs and traditions, spiritual and moral education of the younger generation, development of feelings of national pride and national honor.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan yosh avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Jamiyat taraqqiyoti, milliy o'zlikni anglash va milliy madaniyatni rivojlantirish jarayonida yoshlarning milliy tuyg'ularini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarda milliy tuyg'ularni rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirish avvalo ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari va tarbiyaviy muhitiga bevosita bog'liq. Dars jarayonida milliy qadriyatlar, tarixiy meros, urf-odatlar hamda xalq pedagogikasi unsurlaridan samarali foydalanish o'quvchilarda milliy ong va milliy g'ururni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'qituvchining shaxsiy namunasi, pedagogik mahorati va tarbiyaviy yondashuvi ham bu jarayonda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, globallashtirish sharoitida yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarga sodiqlik hamda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu bois o'quv jarayonida o'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ularni amaliyotda qo'llash muhim ilmiy-pedagogik vazifa hisoblanadi.

Pedagogik shart-sharoitlar — bu ta'lim sub'ektlari o'rtasida nizolar va ixtiloflarni oldini olish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik hodisalar va jarayonlardir.

Pedagogik shart-sharoitlarning ayrim misollari: ta'lim muassasalarida

zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish; ta'lim dasturlarini tizimli va ketma-ket tashkil qilish; ta'lim sub'ektlari o'rtasida ochiq muloqotni ta'minlash.

Pedagogik shart-sharoitlar ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Pedagogik shart-sharoitlar quyidagi pedagogik muammolarni hal qiladi:

O'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish. Bu jarayon o'quvchilarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirish, ularda muammolarni mustaqil hal etish va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun qulay muhit yaratishni talab qiladi. Demak, shundan ko'rinib turibdiki, pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasida o'zaro kommunikativ jarayon, muloqot bo'lsagina ko'zlangan natijaga erishish mumkin bo'ladi.

Ta'lim sub'ektlari o'rtasida nizolarni oldini olish. Pedagogik shart-sharoitlar ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni qulaylashtirish maqsadida pedagogik konfliktologiyadan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan. Ta'lim dasturlarini tizimli va ketma-ket tashkil qilish. Pedagogik shart-sharoitlar ta'lim dasturlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Ta'lim sub'ektlari o'rtasida ochiq muloqotni ta'minlash. Bu ta'lim sub'ektlari o'rtasida ochiq muloqotni ta'minlashni nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahon ta'lim tizimida global o'zgarishlar natijasida erkin fuqaro shaxsini tarbiyalashga bo'lgan e'tibor yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llash, gumanizm, tolerantlik, ijtimoiy intellekt, insonlar bilan o'zaro munosabatda kommunikativlik kabi fazilatlarini rivojlantirish texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishga undamoqda. YUNESKO tomonidan 2030 yilgacha qabul qilingan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "ta'lim oluvchilarda muloqotda hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish" dolzarb vazifa sifatida belgilanib, ularning ijtimoiy tajriba orttirishi uchun tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxslararo munosabatlarda kirishimlilik, madaniyatlilik, kengfe'llik, xushmuomalalikni maromiga etkazish prinsiplariga amal qilish, mazkur sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan yirik loyihalar amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar bilan birga shaxslararo munosabatlarda hurmat, hamdardlik, sabr-toqat, mehr-oqibat

tuyg'ularini rivojlantirish yoshlar tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarni

kengaytirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. 2022yil 28yanvar PF-60 2022-2026yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot stretegiyasi" to'g'risida. So'nggi besh yillik islohatlarining natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. Shu jihatdan, O'zbekiston Respublikasining barqarorligiga, ya'ni uning ijtimoiy, ma'naviy yuksalishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan destruktiv g'oyalarning oldini olish, pedagogik jamoada turli ixtilof va nizolar profilaktikasini o'tkazish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PQ- 4623-son

"Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 2019 yil 11 iyuldagi PF-5763-sonli "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 12iyuldagi 2019 yildagi 577-son "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida" qarori va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Didaktik va tarbiyaviy jarayonlarda pedagogik konfliktologiya- pedagogik omillarning samaradorligini oshirish maqsadida shaxsga axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy psixologik ta'sir ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Ta'lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlash metodikasini egallash, uni pedagogik amaliyotga tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Ta'lim muassasalari o'qituvchilari ko'pincha o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini o'rganishga e'tibor qaratadilar,

ammo ta'lim jarayonida o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajalarini (keng ma'noda) tadqiq etish, pedagogik konfliktologiya metodlaridan foydalanish mexanizmlarini uzluksiz ta'lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtai nazaridan talqin qilishga, uning echimlarini topishga o'rinishmaydi. Zero, pedagogik konfliktologiya vositasida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'qituvchining tolerantlik prinsiplari asosida ta'lim jarayonini boshqarish, tahsil oluvchilarning bilim egallashlarini faollashtirish, ularni intellektual rivojlantirish uchun ruhiy iqlimni tashkil qilish kabi muhim vazifalar amalga oshiriladi..

O'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirish muammosi pedagogika va ijtimoiy fanlarda keng o'rganilgan ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda chet el va o'zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar va madaniy merosning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Amerikalik pedagog olim John Dewey ta'lim jarayonida jamiyat madaniyati va ijtimoiy tajribaning ahamiyatini asoslab bergan. Uning **1916-yilda nashr etilgan "Democracy and Education"** asarida ta'limning asosi bu o'quvchilarda milliy ong va milliy tuyg'ularni shakllantirishda ta'lim tizimi muhim vosita ekanligini ko'rsatadi.

Rus psixologi va pedagogi Lev Vygotsky ham shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit va madaniy omillar muhim rol o'ynashini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning **1920–1930-yillarda ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga** ko'ra, bolaning tafakkuri va dunyoqarashi jamiyatning madaniy qadriyatlari, til va ijtimoiy tajribasi asosida shakllanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida milliy madaniyat va tarixiy merosdan foydalanish shaxsning ma'naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Amerikalik psixolog Jerome Bruner ham ta'lim jarayonida madaniy muhitning rolini o'rganib, **1960-yilda nashr etilgan "The Process of Education"** asarida bilim berish jarayonida madaniyat va ijtimoiy tajriba asosiy omil ekanligini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, o'quvchilar ta'lim jarayonida milliy madaniyat elementlari orqali jamiyatdagi o'z o'rnini anglay boshlaydi.

O'zbek pedagogik tafakkurida ham milliy tarbiya masalasi alohida o'rganilgan. Ma'rifatparvar pedagog Abdulla Avloniy yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash zarurligini o'z asarlarida chuqur yoritgan. Uning **1913-yilda yozilgan "Turkiy guliston yoxud axloq"** asarida yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil ekanligi ta'kidlangan. Avloniy tarbiya masalasining muhimligini quyidagi mashhur fikr bilan ifodalagan: *"Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir."*

Shuningdek, o'zbek pedagog olimlari Rano Mavlonova, Baxrom Xodjayev va N. Musayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham milliy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya berishning pedagogik asoslari o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida ta'lim jarayonida milliy madaniyat, tarixiy meros, urf-odatlar va an'analarni o'quv materiallari bilan integratsiya qilish o'quvchilarda milliy g'urur, vatanparvarlik va milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim hisoblanadi:

- ta'lim mazmuniga milliy qadriyatlarni kiritish;
- o'qituvchining milliy tarbiya bo'yicha pedagogik mahorati;
- o'quv jarayonida tarixiy va madaniy merosdan foydalanish;
- tarbiyaviy muhitni milliy an'ana va qadriyatlar asosida tashkil etish.

Bu ilmiy qarashlar ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan pedagogik yondashuv o'quvchilarning ma'naviy rivojlanishi va milliy o'zlikni anglashini shakllantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

O'quv jarayonida o'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirish bugungi ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash jarayonida yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta'lim jarayonida

milliy qadriyatlar, an'analar va madaniy merosga tayangan holda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida o'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda milliy ong, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish ta'lim mazmuni, o'qituvchining pedagogik mahorati, tarbiyaviy muhit hamda milliy qadriyatlardan samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, dars jarayonida milliy tarix, madaniyat, urf-odatlar va xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning milliy o'zligini anglashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarni milliy tarbiya elementlari bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarda milliy tuyg'ularni yanada samarali shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchining shaxsiy namunasi, pedagogik madaniyati va tarbiyaviy faoliyati alohida ahamiyatga ega. Chunki o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi muhim tarbiyachi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quv jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan pedagogik yondashuvni keng qo'llash o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlaydi hamda ularda milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois ta'lim jarayonida milliy tarbiya elementlarini tizimli ravishda qo'llash, pedagogik shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish hamda milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tadjibaeva Shoxida Abdurazakovna Ta'lim sub'ektlari orasida ixtilof va nizolar oldini Olishning pedagogik shart-sharoitlari [*monografiya*] – T.: “ilm ziyo zakovat”, 2023,3-10 b
2. Dewey J. **Democracy and Education**. – New York: Macmillan, 1916. – 78–80-betlar.

3.Vygotskiy L.S. **Mind in Society**. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 52–57-betlar.

4.Bruner J. **The Process of Education**. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – 33–36-betlar.

5.Avloniy A. **Turkiy guliston yoxud axloq**. – Toshkent, 1913. – 15–18-betlar.

6.Mavlonova R. **Pedagogika**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 112–115-betlar.

7.Xodjayev B. **Umumiy pedagogika nazariyasi**. – Toshkent, 2017. – 64–68-betlar.

8.Yandex.uz

9.vikipediya.uz